Mustaqillik davri tarixiy romanlarida Ahmad Yassaviy obrazining badiiy talqini

Fayziyeva Hidoyat Sohibboy qizi
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat
universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sa'dulla Siyoyevning "Ahmad Yassaviy" roman-dilogiyasida shayx-valiylar obrazining badiiy tasvirlarini kuzatish orqali mustaqillik davri tarixiy romanlarida adabiy qahramon va ulug'vorlik haqidagi qarashlar yangilanishi o'rganilgan.

Tayanch so'z va iboralar: Roman-dilogiya, makon va zamon, toponim, manoqib, muhit, dunyoqarash, tasavvuf, tariqat, xarakter, hayot haqiqati, poetik idrok, talqin, konflikt, estetik ta'sirchanlik, ulug'vorlik.

Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida: "Xoja Ahmad Yassaviy Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixidur. Maqomoti oliy va mashhur, karomoti mutavoli va nomahsur ermish. Muridu ashobi g'oyatsiz va shohu gadoning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish... mazori Turkistonda, Yassi degan yerdaki... Turkiston ahlining qiblai duosidur"1 deb yozadi. Istiqlol yillarida muqaddas dinimiz ham, tariqat pirlari merosi ham xalqimizga qaytarildi. Albatta, biz ushbu maqolada Hoja Ahmad Yassaviyning hayoti, tasavvufiy va adabiy merosi o'rganilishi bilan bog'liq murakkab hamda mashaqqatli jarayonlarni bayon qilish fikridan mutlaqo yiroqmiz. Bu maqolaning maqsadiga ham kirmaydi. Biroq, mustaqillik yillari ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotimizda sodir bo'lgan o'zgarish va yangilanishlar badiiy adabiyotni ham chetlab o'tmagani, yanada aniqroq aytganda, aynan shu omil badiiy nasrimizda yangi bir maydon ochilishiga imkon yaratgani xususida so'zlash uchun yuqorida "tarix"ga qisqacha sayohat qilishga ehtiyoj sezildi. Yozuvchi Sa'dulla Siyoyev olis tarix zarvaraqlarini sinchkovlik bilan kuzatib, "Ahmad Yassaviy"2 roman-dilogiyasida piri Turkistoniy to'laqonli siymosini badiiy gavdalantirishga harakat qildi. Asar tarkibiy tuzilishi jihatidan ikki kitobdan iborat: 1. "Qasamxo'rning jazosi"(3-264-b). 2. "Ona yurt shamollari" (265-330-b.). Kitobga ilova qilingan "Ikki og'iz arzi hol" nomli muallif izohida (331-333-b.) bu asar yozuvchining istiqlol sharofati, farzandlik burchi tufayli ma'rifiy-ruhiy quvvat manbaalarimizga murojaat etish natijasi o'laroq, yigirma yillik ijodiy izlanishlari samarasi sifatida maydonga kelgani bayon qilinadi. Roman-dilogiyaning ilk kitobi voqealari shayx hazratlarining Ka'ba ziyoratini ixtiyor etganlari xabari bilan boshlanib, Marvdan Turkiston tomon yuzlanishlari bilan tugaydi. Ikkinchi kitob shayx karvonining otamakonga qaytishi voqealari bilan boshlanib, oltmish uchga (Payg'ambar yoshiga) yetgach, yer ostida hujra yasatib, "chilla"ga kirishi bilan tugaydi. Demak, romanda Yassaviyning oltmish ikki va oltmish uch yasharlik davri – ikki yillik hayot yo'li yoritilgan. Bu ibrat va ko'rsatmalarga og'ishmay amal qilgan S.Siyoyev romanda Ahmad Yassaviyni umri faqat Sultoniya masjidi xonaqosi, xalifalar, muridlar qurshovida o'tgan shayx sifatidagina tasvirlamaydi. Balki uning oilaviy hayotiga ham bir qur nazar tashlaydi. Jumladan, yigirma yillik jufti haloli – isfijoblik Musa shayxning kenja qizi Ruqiya bibi obrazi oqila, ziyrak, e'tiqodli, sadoqatli, itoatkor, sobira ayol; ikki qiz va bir o'g'ilning mehribon onasi sifatida ham ochiladi. Sa'dulla Siyoyev romanda muammoning ayni shu jihatiga e'tibor berib, o'z yurti va butun dunyoda mutasavvuf ulamo sifatida tanilgan Ahmad Yassaviy siymosini bor mahobati va o'ziga ortilgan savob yuklari, salobati bilan ifodalashga intilgan. Shahobiddin hoji, Ashrafxon qozi kabi hasadgo'y, qasamxo'r va munofiq kimsalar obrazini qiyosiy planda ko'rsatish orqali konflikt tarangligini ta'minlash va estetik ta'sirchanlikni oshirishga erishgan. Yozuvchi romanda Qul Xoja Ahmad Yassaviyni tili burro voiz, ayni paytda, ko'zi namlik, dili g'amlik, xokisor inson

sifatida ham ochishga intilgan. Romanning: “... to badanga xarfi mad yetguncha, yaxshilik tuxmin eksinlar. Yaxshilikdan ne yomonlik ko’rdingki, yaxshilik qilishni istamaysan, yomonlikdan ne yaxshilik topdingki, hargiz yomonlik qilg’aysan? Allohning mag’firati ila hikmat keldi: Qul xoja Ahmad, yomonlarning yomonisan, Barcha bug’doy, el tutmog’on somoni – sen...”1 kabi o’rinlari asarning Yassaviy hikmatlari va ularning mohiyati bilan ziynatlanganini ko’rsatishi jihatidan xarakterlidir. Xulosa qilib aytganda, o’zbek tarixiy romanchiligi mustaqillik davrining erkin, plyuralistik tafakkuridan ma’naviy-ruhiy kuch olib, shayx-valiylar obrazini xolis ko’rsatishga intilmoqda. Jumladan, milliy romanchiligimizda Allohning har narsaga qodir zot ekani, istagan bandasiga nabiy, rasul yoki valiylik maqomini berish faqat Uning izmida ekani poetik ifoda etilmoqda. Alloh o’z do’stlarini mo’’jiza yoki karomat bilan siylashi tabiiy hol ekaniga endilikda, sho’ro adabiy siyosatidagi singari, shubha-gumonlar bilan qaralmayapti. Bu hollar Allohning erka bandalari ayrim ishlarda boshqalardan ajralib turishi sifatida idrok etilib, badiiy ifodaga ko’chmoqda. Mustaqillik davri tarixiy romanlarida kuzatilayotgan yuqorida sanalgan fazilatlar bizning adabiy qahramon va ulug’vorlik haqidagi qarashlarimiz yangilanib, o’zining azaliy Sharqona o’zanlariga qaytayotganidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. Т.17. – Т.: “Фан” , 2001. – Б. 419
2. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. – Т.: “Фан” , 2001. – Б. 213-214
3. Сиёев С. Икки оғиз арзи ҳол. / Сиёев С. Аҳмад Яссавий. Роман. /.Ўзбекистон . – Тошкент, 2012, – Б. 332.
4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур..
5. Қудратов Э. Валийлар каромати ҳақ. Қаранг: http://muslim.uz/index.php/maqolalar/item/9504 1 Сиёев С. Аҳмад Яссавий. Роман. /.Ўзбекистон . – Тошкент, 2012, –